




**Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi**  
(2021- yil yanvar-mart)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2826,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 107,3 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,7 %) ni tashkil etdi.



**B**– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.



**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**  
sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 9,1 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 2,6 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 25,6 % ga, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -59,4 % ga pasayishi kuzatildi.


\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.




**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Shagʻal , ming t.	0,0	0,0	0,0




Ishlab chiqaradigan sanoat







2021-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2365,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 109,1 % ini tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,6 % ni (2020- yilning yanvar-mart oylarida - 2,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 6,0 % (5,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 9,8 % (8,6 %) va quyi texnologiyalisi - 66,3 % (67,2 %) ni tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali**

**O'rta-yuqori texnologiyali**

**O'rta-quyi texnologiyali**

**Quyi texnologiyali**


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 41,2 % (2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,6 % (2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,1 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,3 % (2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 64,5 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,6 % (2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 71,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,3 % (2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,7 %) ni tashkil etdi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da**

2021- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 10,4 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,0 % ga o'sgan), 21,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (32,7 %) ishlab chiqarilib yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi +/-
<b>Paxta tolasi, ming tonna</b>	13,0	20,5	7,5
<b>Aroq – ming litr 100 % spirt</b>	125,7	0	-125,7
<b>Konyak spirti – ming litr 100 % spirt</b>	0	0	0
<b>Vino, ming litr</b>	226,0	0	-226,0
<b>Un, ming tonna</b>	28,8	32,3	3,5
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna</b>	6,0	3,9	-2,1



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 429,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (15,2 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,6 % ga oshganligi kuzatildi.



**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**  
( yil boshidan I- III oylar, % da )






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	1060,7	1730,1	669,4
Issqlik energiyasi, ming gkal	30,8	26,4	-4,4



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.


**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**  
*( yil boshidan I- III oylar, % da )*
**2020-yil % da**

**2021- yil % da**


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	10,5	18,1	7,6
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	1,2	2,8	1,6
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	3,7	3,5	-0,2
To'qimachilik chiqindilari, tonna	0,0	9,0	9,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	0,0	0	0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 71,7 % ga, oqava suvlarni shlami 2,5 martaga ortganligi, hamda shahar xo'jaligining qayta




ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 5,9 % ga pasayganligi kuzatildi.



**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**













Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1455,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,4 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 51,5 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 38,7 % ni, shuningdek, Namangan tumani 11,6 % ni, To'raqo'rg'on tumani 9,3 % ni, Chust tumani 9,1 % ni, Kosonsoy tumani 7,7 % ni, Uchqo'rg'on tumani 5,2 % ni hamda Pop tumani 4,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (112,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mingbuloq (2,9 marta), Chust (2,7 marta), Kosonsoy (126,0%), To'raqo'rg'on (125,4 %), Chortoq (113,1 %) tumanlarida qayd etildi.


**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
 2021- yilning yanvar-mart oylarida

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	563,7	38,9	103,0		135,8	9,3	125,4
	<b>Namangan sh.</b>				<b>To'raqo'rg'on</b>		
	53,5	3,7	285,5		47,6	3,2	100,5
	<b>Mingbuloq</b>				<b>Uychi</b>		
	112,1	7,7	126,0		75,1	5,2	78,7
	<b>Kosonsoy</b>				<b>Uchqo'rg'on</b>		
	168,5	11,6	92,3		39,0	2,7	113,1
	<b>Namangan</b>				<b>Chortoq</b>		
	16,6	1,1	98,3		132,9	9,1	271,2
	<b>Norin</b>				<b>Chust</b>		
	66,0	4,5	102,5		44,3	3,0	107,2
	<b>Pop</b>				<b>Yangiqo'rg'on</b>		













Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 33,9 % ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 13,7 % ni, Chust tumani 12,7 % ni hamda Namangan tumani 11,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Mingbuloq (3,5 marta), Chust (3,1 marta),

Kosonsoy (129,0 %) hamda To'raqo'rg'on (128,4 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2021- yilning yanvar-mart oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
<b>Namangan sh.</b>	311,6	33,9	98,0	<b>To'raqo'rg'on</b>	126,2	13,7	128,4
	44,1	4,8	348,8		23,7	2,6	85,8
<b>Mingbuloq</b>				<b>Uychi</b>			
	100,9	10,9	129,0		24,8	2,7	78,0
<b>Kosonsoy</b>				<b>Uchqo'rg'on</b>			
	108,1	11,7	90,6		12,1	1,3	81,9
<b>Namangan</b>				<b>Chortoq</b>			
	8,0	0,9	99,5		116,9	12,7	311,4
<b>Norin</b>				<b>Chust</b>			
	26,3	2,8	105,1		20,4	2,2	88,0
<b>Pop</b>				<b>Yangiqo'rg'on</b>			













Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 47,4 % ni, shuningdek, Namangan tumani 11,3 % ni, Uchqo'rg'on tumani esa 9,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yangiqo'rg'on tumani (169,5 %),

Mingbuloq tumani (154,7 %) hamda Chortoq tumanida (136,0 %) qayd etildi.



## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2021- yilning yanvar-mart oylarida)

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	252,3	47,4	109,8		9,6	1,8	95,6
<b>Namangan sh.</b>				<b>To'qaqo'rg'on</b>			
	9,5	1,8	154,7		23,9	4,5	112,2
<b>Mingbuloq</b>				<b>Uychi</b>			
	11,1	2,1	104,2		50,3	9,5	79,1
<b>Kosonsoy</b>				<b>Uchqo'rg'on</b>			
	60,3	11,3	95,6		27,0	5,1	136,0
<b>Namangan</b>				<b>Chortoq</b>			
	8,6	1,6	97,2		16,0	3,0	103,5
<b>Norin</b>				<b>Chust</b>			
	39,7	7,5	100,9		23,9	4,5	169,5
<b>Pop</b>				<b>Yangiqo'rg'on</b>			
















## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-mart oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 949,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 33,6 % ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari  
2021- yilning yanvar-mart oylarida**

	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	<b>Viloyat</b>										
	968,3	34,2	102,5		504,9	17,9	119,4				
<b>Namangan sh</b>			<b>To'raqo'rg'on</b>								
	152,7	5,4	108,7		160,8	5,7	110,1				
<b>Mingbuloq</b>			<b>Uychi</b>								
	112,7	4,0	112,2		184,2	6,5	100,2				
<b>Kosonsoy</b>			<b>Uchqo'rg'on</b>								
	254,2	9,0	98,1		43,5	1,5	107,1				
<b>Namangan</b>			<b>Chortoq</b>								
	72,4	2,6	108,2		187,0	6,6	119,0				
<b>Norin</b>			<b>Chust</b>								
	141,5	5,0	102,1		44,4	1,6	104,4				
<b>Pop</b>			<b>Yangiqo'rg'on</b>								




**Hududlar kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida To'raqo'rg'on (2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 119,4 %), Chust (119,0 %), Kosonsoy (112,0 %), Uychi (110,1 %) hamda Mingbuloq (108,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

## Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, % da


## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da



## Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 34,2 % i) hamda To'raqo'rg'on (17,9 %), Namangan (9,0 %), Chust (6,6 %), va Uchqo'rg'on (6,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Chortoq (1,5 %) hamda Yangiqo'rg'on (1,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (2209,8 ming so'm), Namangan shahrida (1497,7 ming so'm), Namangan tumani (1411,6 ming so'm), Uchqo'rg'on (1053,1 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (983,8 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (199,6 ming so'm),

Chortoq (215,0 ming so'm), Norin (435,3 ming so'm) va Kosonsoy (528,3 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.





**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri  
keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
2021- yilning yanvar-mart oylarida, ming so'm**

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	983,8	506,5
<b>Viloyat</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1 497,7	872,0
<b>Namangan sh</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	2 209,8	594,4
<b>To'raqo'rg'on</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1 187,0	416,4
<b>Mingbuloq</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	739,8	219,1
<b>Uychi</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	528,3	525,4
<b>Kosonsoy</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1 053,1	429,6
<b>Uchqo'rg'o'n</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1 411,6	935,5
<b>Namangan</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	215,0	192,5
<b>Chortoq</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	435,3	99,5
<b>Norin</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	693,5	492,9
<b>Chust</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	634,6	295,9
<b>Pop</b>		



	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	199,6	199,1
<b>Yangiqo'rg'on</b>		





**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
2021- yilning yanvar-mart oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1096,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (98,0 %) va Uychi (63,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush To'raqo'rg'on (11,3 %), Uchqo'rg'on (11,4 %), Norin (30,1 %) va Namangan (30,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 811 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 613 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,4 % i) Namangan shahriga, 538 tasi (7,9 %) Uychi tumaniga, 517 tasi (7,6 %) Chust tumaniga, 499 tasi (7,3 %) Kosonsoy tumaniga, 493 tasi (7,2 %) Namangan tumaniga, 460 tasi (6,8 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.





2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 534 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 123 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 23,0 %) Namangan shahrida, 65 tasi (12,2 %) Norin tumanida, 49 tasi (9,2 %) To'raqo'rg'on tumanida, 49 tasi

(9,2 %) Chust tumanida, 44 tasi (8,2 %) Kosonsoy tumanida hamda 43 tasi (8,1 %) Uychi tumanida tashkil etildi.



## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 613 ta), Uychi (538 ta), Chust (517 ta), Kosonsoy (499 ta), Namangan (493 ta), To'raqo'rg'on (460 ta) tumanlari qayd etildi.



2021-yilning 1-aprel holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (185 ta), Pop (275 ta), Chortoq (284 ta), Uchqo'rg'on (287 ta), Yangiqo'rg'on (309 ta) hamda Norin (351 ta) tumanlari qayd etildi.


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 99 ta loyiha bo'yicha 101,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 1 548,0 ming. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021-yil yanvar-mart oylarida 158 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 9 taga kamaydi. Shu bilan birga, 2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining 3,8 martaga ortganligi kuzatildi.


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	2020-yil yanvar- mart	2021-yil yanvar- mart
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	39	99
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	27	57
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	71,9	101,0
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>ming. AQSh dollar</i>	407,7	1 548,0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	168	159

Sanoat statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (69) 227-84-80